

ALISHER NAVOIYNING “SOQIYNOMA” ASARIDA QO‘LLANILGAN BADIY SAN’ATLAR

Hazratqulova Zarina Hasan qizi

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

3-bosqich talabasi

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy turkiy tillar tamal toshini qo‘ygan shaxs hisoblanadi. Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o‘zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqalarning ma‘naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g‘oyalari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan so‘z san’atkoridir.

O‘zbek mumtoz she‘riyati tarixida lirik janrlar rivojining yangi bosqichga ko‘tarilishi bevosita Alisher Navoiy lirikas bilan bog‘liq. Navoiy she‘riyat maydoniga kirib kelgan davrda o‘zbek adabiyotida lirik turning qasida, g‘azal, masnaviy, tuyuq, fard kabi janrlari she‘riy shakl sifatida o‘z takomiliga yetgan, qit‘a, ruboiy, musamman, tarkibband, tarji‘band kabi janrlar esa shakllanish bosqichida edi. [1]

Badiiy asarda so‘z yoki so‘z birikmasining ko‘chma ma‘noda qo‘llanishi trop (gr. tropos — ko‘chim)lar deb yuritiladi. Aslida tilimizdagi hamma so‘zlar ko‘chma ma‘noda ishlatilishdan tug‘ilgan bo‘lsa ajabmas. Lekin ularning dastlabki davrdagi asl ma‘nosi vaqtlar o‘tishi bilan odamlar tomonidan ko‘pincha unutilib yuboriladi. Troplar majoz (ar. so‘z yoki iboraning ko‘chma ma‘noda ishlatilishi va shunday ma‘noda ishlatilgan so‘z, ibora), tashbeh (ar. o‘xshatish; majoz), ko‘chim (trop, oborot ma‘nosini beradi) deb ham ataladi. Ko‘chimlar adabiyotga jilo, joziba, ta’sirdorlik, bo‘yoqdorlik kabi ko‘plab rang-barang fazilatlarni beradi. Quyosh tomchida akslanganidek, san’atkoming badiiyati qudrati alohida olingan birgina tropda o‘zini namoyon eta oladi. Behisob majozlardan bir nechtasini o‘rganishning o‘ziyoq sizni mustaqil izlanishga, qolganlarini izlab, topib, talqin qilishga chorlaydi. Badiiy-tasviriy vositalarning hammasi ham ikki vazifani o‘taydi:

1. Badiiy asarda ifodalangan g‘oyani, shu g‘oyani tashuvchi obrazlarni hayotiyroq va ta’sirchanroq ifoda qiladi. Bu mazmuniy vazifa.

2. Misralar, baytlar, bandlarning (demakki, badiiy asarning) lafziy musiqiyiligini, jilosini, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu shakliy vazifa. Mazmun va shaklning monolitlik xislati bu vositalarga ham xos bo‘lgani sabab ular ikki vazifani birvarakayiga va bir vaqtda o‘taydilar. Ularning har biri san’atkor badiiy mahoratining kichik o‘lchovi bo‘la oladilar, ya’ni san’atkor badiiy dunyosining hayotiyiligini, go‘zalligini, betakrorligini, yangiligini ko‘z-ko‘z qila oladilar. Kitobxonni hayratga sola biladilar. Hazrat Alisher Navoiyning «Majolis ul-nafois» asarida bir voqea bor: kunlarning birida Lutfiy va Alisher Navoiy uchrashganlarida yomg‘ir yog‘ayotgan bo‘ladi. Lutfiy yomg‘irga ishora qilib, Amir Xisrav o‘z g‘azallaridan birida shu hodisani nafislik — san’atkorlik bilan tasvirlaganini aytadi: mahbuba bahor ayomida biron tomonga ketayotganida yomg‘ir tufayli yerga yiqilay debdi-yu, noziklikdan yomg‘ir rishtalari(tomiri)ni ushlab qaddini rostlab olibdi. Navoiy bundan hayratga tushadi va uni saroy ahliga so‘zlab beradi. Hamma lol qolsa-da, sinchkov Husayn Boyqaro e’tiroz bildiribdi: «... ul e’tiroz budirkim, yol yog‘in qatrasini yuqoridin quyi inib keladur, muqarrardurkim, rishtag‘a dag‘i hamul holdir. Rishtaikim, mayli quyi bo‘lg‘ay, aning madadi bilan yiqiladurg‘on o‘zin asramog‘i maholdir». Ko‘rinadiki, badiiy tasviriy vosita qanchalik hayratomuz bo‘lmasin, uning asosida hayot (yomg‘ir) mantig‘i buzilmasligi, yangiligi, betakrorligi asoslangan bo‘lishi, kitobxonni to‘liq ishontirishi badiiy qonuniyat bo‘lib qolaveradi. Ana shu qonuniyatga amal qilgan san’atkor badiiy mahorati na- muna bo‘la oladi. Ha, «Shoirlarimiz borki, yozganlari, bir qaraganingda bus-butun, ravon, qofiyalar joyida. Lekin ularning asarlari na adabiyot tarixida, na xalq qalbi- dan bir umr joy olishi gumon. Sen minglab satr she’r yozsang-u, shundan aqalli ikki-uch misrasi ham yuraklardan joy olmasa — bu shoir uchun katta fojia. «Ey yor, men seni sevaman». Ana shu gapni Mirza G‘olib «Ey, yor, ostonang oldida yotgan toshni nima qilarding nariga surib qo‘yib, axir u mening peshonamga urilaverib o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketardi-ku!» deb berishida juda kuchli obrazlilik barq urib turibdi». Xullas, bu mulohazalarning yanada chuqurroq, osonliroq,

aniqroq isbotini jonlantirishda, mubolag'ada, litotada, o'xshatishda, sifatlashda tazminda ham ko'rish mumkin. [2]

Navoiy hazratlarining "Soqiynoma" asarida ma'naviy, lafziy hamda mushtarak san'atlardan talaygina keltirilgan.

Xususan, bunda yangi san'at turi hisoblanmish baroati istihlol san'ati ham qoyilmaqom tarzda ifoda etilgan.

BAROATI ISTIHLOL – mushtarak badiiy san'atlar jumlasidan. "Baroat" ilmda yoki boshqa narsalarda o'z tengqurlaridan ustun bo'lmoq, "Istihlol" esa yangi oyni ko'rmoqdir. Istilohda she'r, kitob yoxud muayyan bobni asosiy maqsadga, keying mazmunga nozik ishora qilish bilan baholash san'atini anglatadi.

Alisher Navoiyning "Soqiynoma" asarida baroati istihlol san'atidan umumli foydalanilgan:

Jom darxo'r anga ka'si xurshid

Dema xurshidki, jomi Jamshid

Bu satrlar Alisher Navoiyning Xamsa tarkibiga kiruvchi "Farhod va Shirin" dostoniga ishora qilingan. Unda "jomi Jamshid" haqida gap boradi. U 400 olim tomonidan kashf qilingan bo'lib, insonga xohlagan odamini istagan vaqtda ko'rsata olgan.

Talmeh arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "chaqmoq chaqilishi", "bir nazar tashlash" demakdir. Badiiy san'at sifatida u tarixiy va afsonaviy voqea, masal, shaxs, mashhur asar va qahramonlar nomiga ishora qilish vositasida fikrni qisqa, ixcham tasvirlashdir.

[3]

Navoiyning ushbu baytida:

Qani Temur – shahi islompanoh

Ki jahon oldi, chekib xayli sipoh

1336-1405-yillarda Turkiston hududida yashab, Movvarounnahrdek ulkan markazlashgan davlatga asos slogan tarixiy shaxs hisoblanadi. Tarixda dunyo tamadduniga o'z hissasini qo'shgan, Turon yurtida ilm-fan rivojini yuksak darajada targ'ib etib, e'tirof qilgan hamda Sohibqiron degan buyuk nomga sazovor bo'lgan

ulkan shaxs hamdir. Bu o'rinda Navoiy Temurning dunyo mamlakatlarini egallaganligini, bisyor lashkar to'plaganligini va islom diniga e'tiqod qilganligini aytib o'tganlar.

Takrir" "takrorlash" ma'nosini ifodalovchi lafziy san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyati sanaladi.[4]

Chunonchi, Alisher Navoiy "Soqiynoma"sida

Soqiyo, tut manga gulbo'y qadah,

Xalq ko'nglidin alamsho'y qadah

Bu baytda qadah so'zi takrir san'atini hosil qilgan. Shuningdek, baytda takrir san'atidan tashqari yana gulbo'y qadah – tashbeh, soqiyo – insho san'atining nido nomli turiga ma'lum bo'lgan san'atlar ham ishtirok etgan.

"Mukarrar" so'zi "qayta-qayta", ust-ustiga» ma'nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san'at esa baytning har ikki misrasida juft so'z qo'llashni nazarda tutadi. Atoullah Husayniy o'zining «Badoyi'us-sanoyi'» asarida «Rashidi Vatvot depturkim, shuaro mukarrar deb andoq she'rni ayturkim, bir baytta bir lafzni keltirurlar va o'zga baytta aning ta'sirida o'shul lafzni yana keltirurlar», – deb ta'kidlaydi va Asjadiy she'ridan misol keltiradi. Demak, allomaning yozishicha, ushbu san'atda bir baytning ikki misrasida keltirilgan ikki juft so'z keyingi bayt misralarida ham takrorlanishi kerak. Ammo she'riyatimizda mukarrarning boshqa bir ko'rinishi, ya'ni bir baytning har ikki misrasida juft so'z qo'llash san'atidan ko'proq foydalanilgan. [4]

Qavm-qavm ichra ko'rub mehnatlar,

Xayl-xayl ichra chekib shiddatlar.

Yuzlanub shavkat-u, joh-u iqbol,

Qismatim bo'ldi base mansab-u mol.

Qavm-qavm, xayl-xayl so'zlari mukarrar san'atini yuzaga chiqargan bo'lib, uning ma'nosi qavmu-qarindosh, el-ulus ichida birgalikda mehnat qilib, xayl (xiyla) ko'p shiddat chekdi. Keying qatorda esa, tanosub degan go'zal san'atdan

foydalanilgan. Bu san'at – she'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati. Biror narsani o'ylaganimizda ko'z oldimizga uning belgilari, xususiyatlari keladi. Masalan, quyosh haqida gap ketganda, avvalo, uning nur sochishini xayolga keltiramiz, yuz deganda uning bilan bevosita bog'liq ko'z, qosh, lab, og'iz kabilar xayolda jonlanadi. Bir manzarani shular yordamidagina to'laroq tasavvur qilamiz. She'riyatda ham shunday. Shoir biror hodisani tasvirlar ekan, ma'no jihatidan unga yaqin so'zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi. Keying baytdagi shavkat, joh, iqbol, mansab, mol so'zlari o'zaro tanosub san'atini hosil qilgan. Inson umri davvomidan boylik orttiradi, yuguradi, yeladi, lekin mana shu ko'z ochib yumguncha bo'lgan vaqt mobaynida uning umri o'z nihoyasiga yetganini anglamay qoladi. Uning qismatiga mansab-u mol birla tugash yozildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Navoiy serqirra ijodkor. Uning asarlari hanuzgacha asrlar oshib kelmoqda. Insoniyatning ma'naviy ozuqasi bo'lmish ijod namunalari avlodlar qalbidan joy olmoqda. Navoiy adabiyotning, lirikaning ustuni bo'lmish 16 ta janrda ko'p va xo'p ijod qilgan. Bobomizning biz avlodlarga qoldirgan merosi necha-necha asrlar insoniyatga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Sirojiddonov Shuhrat, Yusupova Dilnavoz, Davlatov Olimjon "Navoiyshunoslik" "Tamaddun" Toshkent – 2019*
2. *Hotam Umarov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent A.qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 2004*
3. *Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. Adabiyot Toshkent–2017*
A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq, 1999, 100-bet.